

**SALOMATLIGI CHEKLANGAN KICHIK MAKTAB
YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING O'QISHGA BO'LGAN
MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH**

*O'zbekiston Milliy Universiteti, Psixologiya kafedrasi 2- kurs
magistranti **Davronova Muharram To'liqinova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada salomatligi cheklangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish jarayonida o'qituvchining roli O'qituvchining individual yondashuvi, rag'batlantirish usullari o'yinli va ko'rgazmali metodlarning samaradorligi tahlil qilibbingan. Shuningdek, salomatligi cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Maqolada dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda motivatsiyani oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ham bayon etilgan. Natijada, o'qituvchining to'g'ri pedagogik yondashuvi o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat, ishonch va faollikni rivojlantirishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, rag'batlantirish, o'qituvchi roli, kichik maktab yoshi, individual yondashuv, inkluziv ta'lim, amaliy metodlar, psixologik qo'llab- quvvatlash, o'qishga qiziqish, salomatligi cheklangan o'quvchilar.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль учителя в процессе формирования учебной мотивации у младших школьников с ограниченными возможностями здоровья. Проанализированы индивидуальный подход учителя, методы поощрения, эффективность игровых и наглядных методик. Также показаны преимущества организации учебного процесса, адаптированного к потребностям и психологическим особенностям учащихся с ограниченными

возможностями здоровья. В статье приведены методические рекомендации, направленные на повышение мотивации в ходе уроков и внеурочной деятельности. В результате обосновано, что правильный педагогический подход учителя способствует формированию у учащихся положительного отношения к учебе, уверенности в себе и активности.

Ключевые слова: Мотивация, поощрение, роль учителя, младший школьный возраст, индивидуальный подход, инклюзивное образование, практические методы, психологическая поддержка, интерес к обучению, учащиеся с ограниченными возможностями здоровья.

Annotation: This article examines the role of the teacher in the process of forming learning motivation among primary school students with disabilities. The study analyzes the teacher's individual approach, methods of encouragement, and the effectiveness of game-based and visual teaching methods. It also highlights the advantages of organizing an educational process adapted to the needs and psychological characteristics of students with disabilities. The article presents methodological recommendations aimed at increasing motivation during lessons and extracurricular activities. As a result, it is substantiated that the teacher's proper pedagogical approach contributes to the development of a positive attitude toward learning, self-confidence, and activity among students.

Keywords: Motivation, encouragement, teacher's role, primary school age, individual approach, inclusive education, practical methods, psychological support, interest in learning, students with disabilities.

Bugungi kunda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv, ya'ni barcha bolalarga, jumladan, salomatligi cheklangan o'quvchilarga ham sifatli ta'lim berish dolzarb masalaga aylanmoqda. Salomatligi cheklangan kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish o'qituvchidan alohida yondashuv, psixologik bilim va metodik mahoratni talab

etadi. Motivatsiya- bu o'quv faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, bola o'qish jarayoniga ijobiy munosabatda bo'lishi va muvaffaqiyatga intilishi uchun asos bo'ladi. Motivatsiya tushunchasi psixologiyada shaxsning faoliyatini harakatlantiruvchi ichki omil sifatida izohlanadi. Misol uchun A.Maslou, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteynlarning ilmiy qarashlarida motivatsiya shaxs rivojining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. [7] O'quv motivatsiyasi esa bola tomonidan o'qish faoliyatini anglab yetish, unga qiziqish va ehtiyoj asosida yondashish jarayonidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun motivatsiya ko'pincha tashqi rag'batlantiruvchi omillar – maqto'v, ota- ona e'tibori va baho orqali shakllanadi, ammo o'qituvchi bu jarayonni ichki motivlarga aylantira olishi lozim.

Salomatligi cheklangan bolalar (psixofizologik va fizologik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar) o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega. Ular o'qish jarayonida tez charchash, diqqatning sustligi, xotiraning zaifligi, ijtimoiy faollikning pastligi, o'ziga ishonchsizlik kabi psixologik to'siqlarga duch keladi. Shuning uchun ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirishda o'qituvchi individual yondashuv, ijobiy emotsional muhit yaratish va qo'llab- quvvatlash tizimiga tayanishi zarur. Masalan, o'quvchini kichik yutuqlari uchun rag'batlantirish, sinfda o'zini qadrlash hissini shakllantirish, O'yin va ijodiy faoliyatni o'qitish jarayoniga kiritish samarali natijalar beradi. [3] Yana shuni ta'kidlab o'tishim joizki, bunday bolalarga dars beruvchi o'qituvchilarni o'zlarini bunday bolalar bilan ishlashga psixologik tayyorgarliklarini aniqlab olish kerak. Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatdiki, juda ko'p o'quvchilarni nafaqat o'quvchilarni balki ustozlarini ularga qilayotgan muomilasini ham ko'ngildagidek emas. Bunday o'quvchilar ham jamiyatimiz a'zosi hisoblanadi, salomatligida muammosi bor bolalar bilan ikki karra ko'proq ishlash joiz deb hisoblaymiz. Chunki ularda sog'lom bolalarga qaraganda diqqat barqarorligi ancha past, xotira sust ba'zi o'quvchilarni harakatlanishida yoki nutqida muammosi bo'lganligi sababli ular

yozishga, og'zaki gapirishga qiynaladi. Darsdan so'ng bu bolalar bilan o'qituvchi, psixolog birgalikda ishlashi kerak. Faqat dars jarayonida emas, balki uy sharoitida ham ota- onasi unga alohida vaqt ajratib birga dars qildirsa, bolani o'zlashtirishi ancha yaxshilanadi. Dars jarayonida vazifalarni to'g'ri bajargan payt o'qituvchi unga motivatsiya berishi bolani yanada darsga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

O'qituvchi salomatligi cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda nafaqat bilim beruvchi, balki motivatsiya manbai hamdir. Uning so'zi, munosabati, baholash uslubi o'quvchining o'z kuchiga ishonchi va o'qishga bo'lgan ishtiyoqni belgilab beradi. Motivatsiyani shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Individual yondashuv - har bir bolaning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos topshiriqlar berish. Ya'ni xotirasi sust va diqqati tez ko'chuvchan salomatligi cheklangan bolalarga kamroq topshiriq berish lozim.

2. Ijobiy muloqot- bolaning xatti - harakatini tanqid qilish o'rniga uni qo'llab – quvvatlash. Misol uchun eslab qolishi qiyin bo'lgan bolalarni “Sen nega eslab qololmayabsan”, deb tanqid qilmasdan unga yarasha yani qancha so'zni yoki gapni eslab qolishiga qarab vazifa berib, vazifani bajargandan so'ng qo'llab quvvatlovchi motivatsiya beruvchi so'zlardan foydalanish zarur.

3. O'yin texnologiyalari – dars jarayonida qiziqarli o'yin elementlarini kiritish. Dars faqat o'qituvchining gapirishidan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Unda o'quvchilarga mos texnikalar, o'yinlar bilan dars jarayonini tushuntirish bolani xotirasida tez va uzoq muddatli saqlanadi va bola ham faol ishtirok etadi.

4. Hamkorlik muhiti – o'quvchilar o'rtasida do'stona raqobat va o'zaro yordamni rag'batlantirish. Ya'ni raqobat bu yuqori bahoga nisbatan bo'lishi mumkin. Bolalarni bajargan vazifasiga qarab to'g'ri baholash va rag'batlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Hamkorlik qilishda a'lochi o'quvchilarni past o'zlashtirayotgan o'quvchilarga yordamlashishini ta'minlash zarur. Bu o'zlashtirish jarayonida ancha yuqori natijalar beradi.

Lekin shuni unutmasligimiz ham kerakki bu ikki jarayon raqobat va hamkorlik me'yorda bo'lishi lozim, haddan tashqari raqobat stressga olib kelishi mumkin faqat hamkorlik bo'lsa o'quvchida shaxsiy tashabbus pasayadi.

5. *Rag'batlantirish tizimi* – og'zaki maqtov, kichik sovg'alar, yulduzchalar orqali ijobiy baholash. Bola bu jarayonda ya'ni rag'batlantirishdan motivatsiya oladi va o'qishga bo'lgan ishtiyoq yanada oshadi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari- sabr, empatiya, ijodkorlik va mehribonlik motivatsion muhitini yaratishdagi eng muhim omillardir. Mahoratli o'qituvchi motivatsion muhitni hech bir to'siqlarsiz tashkil qila oladi. Psixologik jihatdan, ijobiy motivatsiya bola miya faoliyatida dopamin va serotonin darajasini oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida kayfiyat, xotira va e'tibor jarayonlarini yaxshilaydi. Demak, o'qituvchi tomonidan berilgan ijobiy so'zlar, maqtovlar, illiq muomala bola ongida "Men ham eplay olaman" degan hissiyot paydo qiladi. Salomatligi cheklangan bolalar uchun dars jarayonida o'z yutuqlarini ko'ra olish imkonini berish, ularning harakatini qadrlash motivatsiyani kuchaytiradi. Masalan, oddiy topshiriqni bajargan bola ham "Alo bajarding", "Senga ishonaman", "Buni uddalay olasan" kabi so'zlar orqali ruhiy ko'tarinkilikni his qiladi.[5]

Salomatligi cheklangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish jarayoni oddiy o'quvchilarnikidan farq qiladi. Chunki bu bolalarda fiziologik, kognitiv va psixologik rivojlanishdagi ayrim cheklovlar mavjud bo'lib, ularning o'qishga munosabatini to'g'ridan -to'g'ri shakllantirish emas, balki bilvosita rag'batlantirish orqali yo'naltirish zarur. O'qituvchi bu jarayonda quyidagi bosqichlarni amalga oshiradi:

1. Bolani individual o'rganish- uning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, sog'lig'i va hissiy holatini kuzatish. Bunda eng muhimi bolani sog'lomlik darajasini hisobga olgan holatda yondashish lozim.

2. Moslashtirilgan o'qitish usullarini qo'llash- ko'rgazmali vositalar, o'yinli topshiriqlar, sensomotor mashg'ulotlar. Salomatligi cheklangan bolalar bilan ishlashda eng samarali usullarda biri ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki audio vositalarni qo'llash.

3. Motivatsion muhitni yaratish – darsda quvonchli, xavfsiz, ijobiy atmosfera hosil qilish. Bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

4. Doimiy rag'batlantirish va mustahkamlash – bolani kichik yutuqlari uchun maqto'v, belgilar, ramziy sovg'alar bilan qo'llab- quvvatlash. Masalan, nogironligi bo'lgan bola darsda faqat bir topshiriqni to'g'ri bajargan bo'lsa ham, o'qituvchi : “Sen bugun juda yaxshi ishlading, rahmat!” deb aytsa, bu oddiy so'z bola uchun katta ruhiy turtki bo'ladi. Ruhiy turtki esa bolani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Salomatligi cheklangan bolalar bilan ishlashda samarali metodlarni bir nechtasini keltirib o'taman.

- *“Qadam – baqadam o'qitish” metodi* . Bu usulda murakkab bilimlar kichik, soda bosqichlarga ajratiladi. Har bir bosqich muvaffaqiyatli yakunlangach, bola yangi topshiriqqa o'tadi.

- *Ko'rgazmali va multimediya vositalardan foydalanish*. Rangli rasmlar, piktogrammalar, videoroliklar o'quvchini ko'proq diqqat bilan o'qishga undaydi.

- *Jamoaviy ish metodlari* . Kichik guruhlarda ishlash orqali bola o'zini jamoaning bir qismi deb his qiladi, bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

- *O'yin orqali o'qitish*. Didaktik o'yinlar- ayniqsa autizm spektridagi bolalarada o'qishga bo'lgan ijobiy hissiyotlarni uyg'otadi.

- *“Mening yutug'im” burchagi*. Har bir bolaning kichik yutuqlari rasmlar, belgilar yoki sertifikatlar ko'rinishida devorga ilib qo'yiladi. Bu bolalarda o'z qadrini his qilishni oshiradi.

Rag'batlantirish, ijobiy turtki va shaxsiy yondashuv haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Motivatsiyani kuchaytirishning eng muhim omili – ijobiy

rag'batdir. O'qituvchi salomatligi cheklangan bolalar bilan ishlaganda quyidagi shakllardan foydalansa, natijasi ancha yuqori bo'ladi:

- Og'zaki rag'bat: "Ajoyib!", "Sen bunga qodirsan!", "Yana urinib ko'r, men senga ishonaman!"
- Ramziy rag'bat: yulduzchalar, yurakchalar, rasmlar, stikerlar;
- Ijtimoiy rag'bat: sinf oldida e'tirof etish, kichik tantana qilish;
- Tanlovli rag'bat: bola ma'lum topshiriqni bajargach, o'zi yoqtirgan o'yin yoki mashg'ulotni tanlash huquqiga ega bo'ladi;

Shaxsiy yondashuvda o'qituvchilar har bir bolaning individual ehtiyojini inobatga oladi. Masalan, eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchiga yozma va ko'rgazmali topshiriqlarni ko'proq beradi, autistik spektrdagi bolalar bilan esa qisqa, aniq, takrorlanuvchi ko'rsatmalar orqali muloqot qiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar- salomatligi cheklangan bolalarda o'qishga qiziqishni shakllantirishda juda muhim. Chunki bu faoliyatlarda bola o'zini erkinroq his qiladi, muvaffaqiyatni tezroq his etadi.

1. Ijodiy to'garaklar – rasm chizish, loydan yasash, qo'g'irchoq yasash bolalarda diqqatni va sabrni rivojlantiradi.

2. Musiqa va ritm mashg'ulotlari- eshitish va hissiy idrokni kuchaytiradi.

3. Ekskursiyalar va ko'rgazmalar - o'quv jarayoniga hayotiy mazmun kiritadi, bolalarda bilimga ishtiyoqni oshiradi.

4. " Kichik loyihalar" usuli – bolalar oddiy tajribalar yoki maketlar tayyorlab, sinf oldida taqdim etadilar.

Motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixolog, tashkilotchi va qo'llab – quvvatlovchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Uning shaxsiy yondashuvi, ijobiy muomalasi va moslashtirilgan metodlari o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqni sezilarli darajada oshiradi. Salomatligi cheklangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish – bu oddiy pedagogik vazifa emas, balki

o'qituvchining yuragidan, kasbiy mahoratidan, insoniy mehridan, kelib chiqadigan murakkab, ammo yuksak ma'noga ega jarayondir. Har bolaning ichki imkoniyatini ko'ra bilish, uni ruhlantirish, o'z kuchiga ishonch uyg'otish-o'qituvchi shaxsining eng katta yutug'idir. Chunki bu bolalar uchun har bir so'z, har bir e'tibor, har bir tabassum – butun bir dunyo demakdir. [6]

O'qituvchi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasdan balki ruhiy tayanch, psixologik qo'llab – quvvatlovchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida maydonga chiqadi. Salomatligi cheklangan bola uchun o'qish – ko'p hollarda sinov, kurash, ba'zan esa qo'rquv manbai bo'lishi mumkin. Ammo mehr bilan yondashgan o'qituvchi ana shu qo'rquvni qiziqish, ishonch va o'ziga bo'lgan hurmat hissiga aylantira oladi. Shu sababli o'qituvchining eng muhim vazifasi – bolaning ichki ishtiyoqini uyg'otish, uni “ men ham qila olaman” degan ishonch sari yetaklashdir.

Motivatsiya shakllanishi uchun o'qituvchi bolani faqat bilim nuqtai nazaridan emas, balki shaxs sifatida ko'ra bilish zarur. Har bir bolaning qiziqishi, his-tuyg'usi, qo'rquvi, orzusi bor. Ana shu jihatlarni sezgan pedagog har bir mashg'ulotni bolaning hayotiy tajribasiga bog'lay oladi. Shu tarzda dars o'quvchi uchun majburiyatdan quvonchga, zerikishdan ilhomga aylanadi. Ta'lim jarayonida rag'batlantirish, ijobiy so'zlar, kichik yutuqlarni e'tirof etish, jamoaviy o'yinlar va ijodiy topshiriqlarni motivatsiyaning kuchli harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi. Bu usullar o'quvchida o'z imkoniyatlariga ishonch uyg'otadi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va har bir kichik yutuqni katta g'alabaga aylantiradi. Shuningdek , o'qituvchi yaratgan ijobiy psixologik muhit o'quvchi uchun xavfsiz, qulay va ishonchli o'quv makoniga aylanadi. Bolaning fikri eshitiladigan, harakati qadrlanadigan, xatosi uchun jazolanmay, balki to'g'ri yo'naltiriladigan muhit – bu haqiqiy motivatsiya manbai hisoblanadi. Shunday sinfda bola o'qishdan qo'rqmaydi, aksincha o'zini erkin, qadrlangan va muvaffaqiyatli his qiladi. Salomatligi cheklangan bolalar bilan ishlashda o'qituvchi har bir kichik natijani yirik

g'alaba sifatida ko'ra olishi kerak. Chunki ularning rivojlanishdagi har bir qadam – sabr, mehnat va mashaqqat bilan olingan natijadir. Ana shu yutuqlarni qadrlash, ularni jamiyat e'tiboriga olib chiqish – o'qituvchi faoliyatning insoniy va ijtimoiy qadriyatlardir.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining roli bu jarayonda faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U bolaning qalbini uyg'otuvchi, orzularini yo'lga soluvchi, ruhini tiklovchi shaxsdir. Salomatligi cheklangan bolalarda o'qishga bo'lgan motivatsiya – o'qituvchi mehridan, ishonchidan, sabridan va bolaga bo'lgan samimiy e'tiboridan o'sib chiqadi. Ana shundagina ta'lim jarayoni nafaqat bilim manbai, balki insoniylik, ishonch va hayotga muhabbat maktabiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.S.Vigotskiy Pedagogika psixologiya . Moskva. Pedagogika 1984.
2. S. Davletova. “Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limda ijtimoiy moslashuv jarayonlari”. – Toshkent “ Yangi asr avlodi” 2022.
3. G.O'razaliyeva.” Psixologik qo'llab – quvvatlashning ahamiyati maxsus ta'limda. – “Ijtimoiy fanlar” jurnali – 2023
- 4.S.Norqulova “ Salomatligi cheklangan bolalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: “Fan” 2022.
5. M.Islomova “ Motivatsiya va o'quv faoliyatni faollashtirishda pedagogning ro'li”. – Ta'lim taraqqiyoti” ilmiy jurnali. 2021.
6. M.Jumayeva va N.Karimova “ Pedagogik psixologiya”.- Toshkent “ Fan va texologiya” 2019.
7. R.Jo'rayeva “ Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. – Toshkent: “O'qituvchi” 2020.